



“Barakalla 2.0” aksiyasini o‘tkazish va unda ishtirok etish shartlari

1. Ushbu shartlar “Barakalla 2.0” aksiyasini (keyingi o‘rinlarda - Aksiya) o‘tkazish va unda ishtirok etish tartibini belgilaydi.
2. Aksiyaning amal qilishi hududi - O‘zbekiston Respublikasi, “O‘zMobayl” filialining GSM standarti tarmog‘i.
3. Aksiya o‘tkazilishi davri - 2024-yil 1-fevraldan 2024-yil 31-martga qadar.
4. Aksiya doirasida “Barakali 33/44/55/77/111” (UZTELECOM ning boshqa telekommunikatsiya xizmatlari doirasida yagona tarif rejasiga kiritilgan konvergent tarif rejalaridan tashqari) tarif rejasiga ulanganda (yangi abonent) va navbatdagi abonent to‘lovini to‘lash sikli bo‘yicha abonent to‘lovi uchun 3 ta sikl davomida oldindan to‘lovni amalga oshirgan abonentlarga amal qilish muddati cheklangan Internet-paketlar taqdim etiladi.

	Barakali 33	Barakali 44	Barakali 55	Barakali 77	Barakali 111
Abonent to‘lovi (oyiga), so‘m	37 000	48 000	59 000	81 000	115 000
Abonent to‘lovi 3 ta sikl davomida o‘z vaqtida to‘langanda Aksiya doirasida taqdim etiladigan qo‘shimcha Internet-paket.	9 GB	14 GB	22 GB	35 GB	60 GB
Amal qilish muddati (kun)	30	30	30	30	30

5. Buferli to‘lov muddati - hisob-kitob davri boshlangan kundan boshlab 48 soatni tashkil qiladi. Agar abonent 1 ta yoki 2 ta hisob-kitob davri oxirida belgilangan muddatda to‘lovni amalga oshirmasa, bonus taqdim etilmaydi..
6. Tarif rejasini o‘zgartirishda taqdim etilgan qo‘shimcha Internet-paket amal qilish muddati tugaguniga qadar saqlanib qoladi. Agar tarif rejasi 3 ta sikl uchun to‘lashdan oldin o‘zgartirilsa, keyingi bonuslar taqdim etilmaydi.
7. Inrnet-resurslar sarflanishining ustuvorligi:
 - “Kunlik” (kunduzgi, non-stop).
 - bonusli Internet-paketlar:
 - “Tug‘ilgan kun”;
 - “Bonus 1 GB”;
 - “MyUZTELECOM” mobil ilovasi bonuslari;
 - eSim+2GB;
 - “Barakalla 2.0” aksiyasi;
 - tarif rejasi doirasidagi Internet-trafik;
 - boshqa Internet-paketlar.

8. “Restart” xizmatidan foydalanganda taqdim etilgan bonuslar saqlanadi va yangi taqdim etilgan bonus bilan umumlashtiriladi, amal qilish muddati oxirgi ulangan paketning amal qilish muddatiga o‘rnatiladi.

9. “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi Aksiya shartlariga o‘zgartirish kiritish huquqiga ega va ushbu haqda tegishli ma’lumotlar Kompaniyaning www.uztelecom.uz rasmiy veb-saytida joylashtiriladi hamda boshqa aloqa vositalari orqali ma’lum qilinadi. Ishtirokchilar Aksiya shartlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilganligini Kompaniyaning mazkur rasmiy veb-sayti orqali mustaqil ravishda tekshirib turishlari mumkin.

10. Internet-paket faollashtirilgandan so‘ng abonentlarga SMS orqali xabar beriladi.